



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

### YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA MA'NAVIY MA'RIFIY ISHLARNING AHAMIYATI

**Xamrakulov O`tkirjon Maxmudovich**

*FarDu harbiy ta`lim fakulteti katta o`qituvchisi*

**Najimitdinov Muzaffar Kamaliddinovich**

*FarDu harbiy ta`lim fakulteti o`qituvchisi*

**Khajiyev Muxiddin Musajonovich**

*FarDu harbiy ta`lim fakulteti o`qituvchisi*

**Ubaydullayev Azamatjon Anvarjon o`g`li**

*FarDu harbiy ta`lim talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola yosh avlodni mafkuraviy jihatdan tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari hamda yoshlarni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashning belgilangan dasturiy vositalar bilan amalga oshirilishi yuzasidan fikr va mulohazalar yuritilgan.

**Kalit So'Zlar:** Yangi O'zbekiston, mentalitet, ma'naviy tahdid, tarbiya, ma'naviyat asoslari, strukturaviy Komponent, mafkuraviy tamoyil.

Yosh avlod tarbiyasining ahamiyatli jihatlaridan biri shuki yoshlar ongida turli tamoyillar bilan birgalikda ijtimoiy ong shakli ham muhim ahamiyat kasb etadi. Vatan taqdirini o'z taqdiri deb bog'lagan kishigina marofiy siyosiy islohatlar davomiyligida faol tarzda davom etadi. Jamiyat va shaxs mafkurasining keng tarzda globalashuv jarayonida turli xil o'zgarishlar mafkuraviy tarbiyaning, mafkuraviy tafakkur bilan aloqadorligini hamohang tarzda yuzaga keltiradi.

Ma'rifiy islohatlar va barkamol inson tarbiyasi xususida so'z ketganda muhtaram prezidintimiz Shavkat Miromonovich Merziyoyevning quyidagi fikrlari g'oyat o'rinlidir: "Azaliy qadryatlarimiz, ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan odob-axloq qoidalariga tahdidlar kuchayib borayotgan hozirgi globallashuv sharoitida ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish g'oyat muhim vazifamizdir" .

Haqiqatdan ham, dunyo ham jamiyatida ruy beradigan ijtimoiy hodisalar vatan taqdiri millat shon-u shavkatini o'z or-nomusi deb biladigan har qanday yosh avlod manaviy ham ma'rifiy jihatdan olgan bilim va salohiyatini ushbu yo'lda safarbar etadi. Ushbu jarayon yoshlar tarbiyasida vatanparvarlik ruhining shakllanishi hamda namunaviy ijtimoiy hayot tarzining yuzaga kelishida



## **"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"**

ma'naviy islohatlar bilan birga uzluksiz ta'lim tizimida olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy harakatlarining o'ziga xosligini keltirib chiqaradi. Mafkuraviy tamoyillarining muhim strukturaviy koponetlaridan biri shundaki mafkuraviy qurollar, mafkuraviy tajovuzning yuzaga kelishini oldini olish uchun mafkuraviy profelaktika ishlarining amalga oshirilishi muhim dasturiy vositalardan biri hisoblanadi. Haqiqatdan ham kishilik jamiyatimizda ta'lim tarbiyaning ahamiyatli jihatidan ham bugungi kunda ham besh tashshabus yuzasida yoshlarning keng mulohaza va onglilik darajasini shakllantirish hamda dunyoning eng rivojlangan davlatlari qatorida jonajon Vatanimizning ham o'rin olishi yuzasidan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash eng asosiy vazifalardan biridir. Yoshlarning vatanparvarlik ruhida tub manosini anglab yetish va ushbu yulda zahmatli faollik yurutadigan soha xodimlari bilan birgalikda amalga oshirib yotgan ishlarning samarasi ularoq amalga oshirilib yotgan turli komponentlardan iborat. Vositlar va ularning asosini tashkil qiluvchi milliy g'oya va ma'naviyat tizimi va qolavirsa vatan tuyg'usi mohiyatining tub asoslarini shakllantirish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki, madaniy merosga bo'lgan hurmatni shakllantirish, har tomonlama ularni vatanimiz ertasini himoya qilishlarida intellektual salohiyatini oshirish bugungi kunning eng asosiy masalalaridan biri ekanini unutmagan holda ularga madaniyatimizga, ma'naviyatimizga, o'zbekona ruhda tarbiyalashning eng yuksak samarali vazifalaridan biri ekanligini ota-onalar, keng jamoatchilik, ilm-fan fidoyilari bilan birgalikda xizmat qilish eng asosiy vazifalaridan biri sanaladi. Yoshlarni Vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda siyosiy, madaniy axborotlardan, adabiyotlardan keng foydalangan asosiy vazifalarni tashkil etadi. Bunda jamiyatimizning eng ilg'or tashkilotchilari mahalla va oila markazi yoshlar bilan ishlashish davomiyligida Yoshlar ittifoqi yoshlar agentligi, Yoshlarni qo'llab quvvatlash jamg'armalari bilan birgalikda ularning g'oyaviy-ma'naviy tarzida ong shaklini oshirish g'oyaviy parokandalikdan saqlash har qanday vaziyatda ham Vatan, or-nomus, shan yurt kabi manfaatlarini himoya qilish eng ulug' fazilatlardan ekanligini ularga singdirish tarbiyalash ekanligini unutmashimiz lozim. Haqiqatdan ham bugungu kunda global ommalashuv jarayonida umum-insoniy g'oyalar bir darajaga ko'tarilgan paytda inson omili va tabiat omili o'rtasida yuzaga kelayotga turli ijtimoiy hodisalarning bugungi kunga aloqadorligini inobatga olgan holatda har qachongidan ham sergak turish va yoshlar ongida millatimiz mintalitetimiz madaniyatimizga xos tarzda tarbiyaning uzluksiz tarzda shakllanishiga keng ahamiyat qaratishimiz lozim. Bunda yoshlar



## **"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"**

Yangi O'zbekistonning strategik ahamiyatini oshirish bilan birgalikda bu yo'lda kerak bo'lsa urf-odatimiz, madaniyatimiz, marosimlarimiz tarbiya shakillarimiz eng asosiy vazifa bo'lib xizmat qilishini unutmashimiz lozim. Bu borada Abdulla Avloniy aytganidek "Tarbiya biz uchun yo hayot- yo momot, yo falokat yo saodat masalasidir" degan fikrlari albatta o'rinlidir. Yoshlarimizni milliy g'oya va mafkura vatanga muhabbat milliy istiqloq g'oyasini ardoqlash yanada vatanimiz shaniga shaniga shan, obrosiga obro qo'shish kabi ulug'vor vazifalarni umumbashariy tarzda amalga oshirish eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bunda ma'naviy islohatning madaniy yangilanishi jamiyatimizda olib borilayotgan ishlar sa'y-harakatlar bilan bir holatda turli xil xatti- haraatlarni amalga oshirish talab etiladi. Qolaversa Vatanimiz sarhadlarini mukammal tarzda qo'riqlash yovlardan himoya qilish qolaversa Vatan bayrog'ini ko'klarga ko'taruvchi sportchilarni tarbiyalash ularni sog'lom va jamiyatga foydasi tegadigan shaxs sifatida tarbiyalash, eng asosiy vazifa ekanligini unutmashlik bugungi kunning haqiqatdan- da dolzarb masalalaridan biridir. Ilm-fan, san'at, ijod, iqtisodiyot kabi sohalarda ham yoshlarni har tomonlama qo'llab- quvvatlash Yangi O'zbekistonning kelajagini yoritish bo'yida eng katta mano bo'lib xizmat qiladi. Bunda inson qadri odamzodning qo'lidan keluvchi barcha ezguliklarni amalga oshirish yovlardan qochish, yaxshilikka yondashish yoshlarni yaxshilikka xizmat qilish yo'lida tarbiyalash albatta ma'naviyatchilar bilan birgalikda ta'lim -tarbiyaning fidoyi xizmatchilari eng katta vazifalaridir. "Ma'naviyat asosini jamiyat,millatga xos ma'naviy, madaniy va moddiy asoslar, an'analar, qadriyatlar, turmush tarzi, g'oyalar va qarashlarni umumlashtiruvchi tushunchalar tashkil etadi" . Bunda ta'lim - tarbiya, san'at, ijod bilan birgalikda ta'limning uzluksiz shakillari boshlang'ish ta'lim, o'rta ta'lim, oliy ta'lim va boshqa ta'limlarda ham mana shunday amaliy nazariy ishlarning amalga oshirilib kelinayotganligi inson ma'naviyati va milliy istiqloq ongimizda amalga oshirilayotgan ishlarning o'ziga xos xususiyatlarini tashkil etadi. Bunda vijdon erkinligini har qanday yosh tarbiyasida mukammal tarzda singdirish vijdonning ahamiyati, vijdonli kishining keng jamoatchilik ilmiy adabiy jarayon va kundalik hayot tarzimizda as qotadigan foydalari yoshlarning bo'sh vaqtlarini unumli mazmunli tashkil etish ko'mak va yordamga ehtiyoji bo'lgan yoshlarni qo'llab quvvatlash ularga har tomonlama ko'mak berish bugungi kunning eng asosiy vazifasi ekanligini inobatga olgan holda vatanimiz kelajagi uning rivojlanishi sa'y-harakatlari yo'lidagi dastlabki qadamlardan biri bo'lib xizmat qiladi. Vatan, vatan tuyg'usi umuminsoniylik, umuminsoniy ma'naviyat ulug'vorlik kabi xislatlarni singdirish yoshlarimizni kelajakka va kelajakda qo'yilgan harakatlar natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy hayotga va ajdodlariga



## **"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"**

munosib avlod tarzda shakillantirish bu Yangi O'zbekiston ta'lim tizimi qolaversa kadrlar tayyorlash milliy dasturi ma'naviyatchilar oldida turgan ham eng asosiy vazifalardan biridir. "Shu bois, qanchalik qiyin bo'lmasin, tanlagan uo'limizdan hech qachon ortga qaytmaymiz. Ko'zlagan marralarimizga albatta yetamiz. Bu yo'lda niyati ulug', qalbi pok, mehnatkash xalqimizga tayanamiz".

Vatanimiz tarixini mukammal o'rganish qolaversa keng jamoatchilikka targ'ib qilish ilm- fan, san'at, ijodning turli sohalarida ham vatanimizga xizmati tegadigan yosh kadrlarni tayyorlash bugubgi kunda keng tarzda amalga oshirib kelinmoqda. Yoshlarni jamiyatimizga foydasi tegadigan qilib tarbiyalashda hayotimizda kundalik turmush tarzda turli xil ijtimoiy hodisalar bilan birgalikda urf- odatlar ijtimoiy marosimlar va bayramlarning ahamiyati kattadir. YOshlar ongida Vatanga muhabbat, vatanga muhabbat hissi vatanni ardoqlsh, vatanga xizmat qilish kabi tuyg'ularni shakillantirish eng avvalo ota-ona, qolaversa pedagog va muallimlarning eng asosiy vazifalaridan ekanligi anglashiladi. Ma'naviy hayot tarzini shakillantirish yuzasidan shaxs millat va jamiyatning ma'naviy munosabatlarga kirilishi mezonlar odoq-axloq kabi tuyg'ulari va tushunchalarning shakillanishida kitob va kitob vositalarining aloqasi albatta katta bo'ladi. Muhtaram prizidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich boshchiligida yosh kitobxon ijtimoiy doirasida yoshlarni qo'llab-quvvatlash kitob va kitob mahsulotlariga e'tiborni oshirish yoshlar ongida Vatanarvarlik ruhini yanada shakillantirish ushbu yo'lda sa'y-harakatlar qilib kelayotgan yoshlarni qo'llab quvvatlash bugungi kunning eng asosiy vazifalaridan va quvonarli tomonlaridan biridir. Inson ma'naviyati kuchli bo'lsagina inson sha'ni, vatan qadri insiniyat qadriga yeta oladi, albatta ma'naviyati kuchli inson ma'naviy hujumlarga bardosh bera oladi. Vatan taqdirini o'z taqdiri bilan bog'lay oladi. Vatan taqdiri kelajagi yo'lida o'z ishi ijodi, hayoti, ijodiy taffakuri, ijtimoiy g'oyalari bilan ijtimoiy tarbiyalar bilan ijtimoiy siyosiy g'oyalar bilan kurasha oladigan kishigina vatan shanini eng yuksak cho'qqiga olib chiqa oladi. Vatanga muhabbat burchning shakillanishida kishining biror narsa shaxs, oila, jamiyat bilan aloqadorligi ushbu jamiyatda yashash va yashashdan shukronalik hissi ma'naviy, madaniy meros vatanning muqaddas ramzlariga hurmat ularni ardoqlsh milliy g'oya va tafakkurga xizmat qiluvchi inson bo'lib yetish qolaversa insoniyatning foydasi teguvchi targ'ibot ishlarini amalgam oshirish milliy istiqloq mafkurasining maqsad va vazizalari bo'lib xizmat qiladi. Milliy istiqloq g'oyasining ijtimoiy iqtisodiy asoslari manashulardan iboratdir.





## **"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"**

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich "Yangi O'zbekidton taraqqiyot strategiyasi". To'ldirilgan ikkinchi nashr. - Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022, 254 b

2. V. Qo'chqorov, O. Mahmudov, Z. Zamonov "Ma'naviyat asoslari |". O'rta ta'lim maktablarining 10-11-sinflari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun darslik, 1-nashr. Toshkent: "Yangiyo'l poligraf servis". 2017, 5 b

3. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston Xalqiga Murojaatnomasi". Toshkent -2022.